

**“ROLI STORY-TELLING” METODI ORQALI O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH****Muazzamxon Xodjayeva***Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida bolalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va ijodkorlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlashda rolli story-telling (hikoya qilish) metodidan foydalanishning afzalligi ochib berilgan. Shuningdek, maqolada nutqiy kompetensiya tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan bo'lib, nutqiy kompetensiyani shakllantirish yo'llari, ushbu kompetensiyani shakllantirish natijasida erishiladigan ko'nikmalar ko'rsatib o'tilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari va ilmiy izlanuvchilar auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lib, ular uchun foydali ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.*

**Kalit so'zlar:** *Milliy o'quv dastururi, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslari, nutqiy kompetensiya, nutqiy faoliyat, rolli story-telling metodi.*

So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda. Sohani rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuzga yaqin farmon va qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 220 dan ortiq qarorlari qabul qilindi. Ushbu me'yoriy hujjatlar orasida “2022–2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PF-134-sonli Prezident Farmoni alohida ahamiyatga molik. Chunonchi, mazkur qarorda yangi Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Yangi Milliy o'quv dasturi 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarga, 2022-2023 o'quv yilidan esa 3-sinflarga joriy etildi hamda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o'quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalari joriy qilindi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan amaliyotga yangi joriy qilingan Milliy o'quv dasturining maqsadi boshlang'ich umumta'lim dasturini o'zlashtirgan o'quvchilarning turli ko'nikmalar, jumladan, o'z fikrini kommunikativ muloqot talablariga mos tarzda tushunarli bayon qilish hamda og'zaki va yozma ravishda matn tuza olish singari malakalarni egallashlarini ta'minlashga qaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularga o'z ona tilida muloqot qila olish madaniyatini o'rgatish vazifasi, shubhasiz, ona tili va o'qish savodxonligi darslari zimmasiga tushadi. Bu darslarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirib, so'ngra izchil ravishda rivojlantirib borish nazarda tutiladi.

**Nutqiy kompetensiya** – o'quvchining ona tilida erkin muloqot qilish, nutqning monologik shaklida ham dialogdagi kabi tez, to'g'ri, ravon gapirish uchun amaliy nutqiy ko'nikmalarga egalik, notanish matnni ifodali o'qiy olish, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish, tinglangan va o'qilgan nutqni yaxshi tushunish qobiliyati.

**Nutqiy kompetensiyani shakllantirish** uzoq va murakkab jarayon bo'lib, imlo va punktuatsion malakalarni rivojlantirish jarayoni bilan birga olib borishni hamda rejali va maqsadli tarzda amalga oshirishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutqini rivojlantirish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Interfaol texnologiyalar asri bolalari qanday muloqot qilishni butunlay unutishdi. Bolalar imo-ishoralar, belgilar, kulgichlar, reklama roliklarida keltirilgan tayyor ibora parchalari vositasida muloqot qiladilar. Ushbu holat bolalarning bir-birlari bilan emas, balki kompyuter va boshqa texnologik taraqqiyot vositalari bilan ko'proq muloqot qila boshlaganliklari bilan bog'liq. Nutqiy kompetensiyaning to'g'ri shakllanmasligiga atrofdagi nutq muhiti, bolaning yetarli darajada rivojlanmagan nutq apparati (dislaliya, alaliya va boshqa logopedik muammolari), fonematik tinglash ko'nikmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham ta'sir qiladi.

Nutq faoliyatida boshlang'ich ta'limning ahamiyati katta, binobarin nutq, idrok va ijodiy qobiliyat aynan boshlang'ich maktab yoshida rivojlanadi. Boshlang'ich maktab o'qituvchisi ona tili darslarida quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish madaniyatini tarbiyalash - to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish, so'zlar, iboralarning aniq talaffuzi, fonematik tinglashning rivojlanishi, nutqning ekspressivligi (ifodaliligi) ustida ishlash;

- to'g'ri nutq malakasini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan so'z boyligini oshirish. So'z boyligi katta bo'lgan o'quvchi fikrning aniqroq va ifodalibroq shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu jarayon 4 yo'nalishda tashkil etadi:

1) o'quvchining so'z lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish;

2) so'z lug'atini takomillashtirish, ya'ni avvaldan ma'lum bo'lgan so'zlar ma'nosining turli sayqallarini tushunish, ularning ma'no nozikliklarini, ma'nodoshlar orasidagi farqlarni aniqlash, zid ma'noli so'zlarni tanlash, polisemiyaning tahlil qilish, majoziy ma'nolar;

3) so'z lug'atini faollashtirish, ya'ni har bir o'quvchining nutqiga iloji boricha kengroq doiradagi so'zlarni kiritish, ushbu so'zlardan jumla tuzishda maqsadga muvofiq ravishda foydalanish;

4) o'quvchilarning o'z nutqida qo'llaydigan noadabiy so'zlardan foydalanishini kamaytirish, so'z urg'usining ma'no ajratishini anglatish, talaffuzni to'g'rilash.

Nutqiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish natijasida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar hosil bo'lishi kerak:

1. O'z fikri va pozitsiyasini og'zaki va yozma ravishda shakllantira olish. Birgalikdagi faoliyat jarayonida umumiy yechimni topishda o'z pozitsiyasini asoslay olish va uni sheriklarining pozitsiyalari bilan muvofiqlashtira olish;

2. Sherigiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni yetarli darajada aniq, izchil va to'liq yetkazish;

3. Hamsuhbatiga tushunarli bo'ladigan jumla qurish, bunda hamsuhbatining nimani bilishi va ko'rayotganini inobatga olish;

4. Savollar berish;

5. O'z xatti-harakatlarini tushuntirish uchun nutqdan foydalanish;

6. Turli kommunikativ vazifalar va muammolarni samarali hal qilish uchun nutq vositalaridan o'rinli va unumli foydalanish;

7. Monologik nutq tuzish, nutqning dialogik shaklini qo'llay olish.

Ushbu ko'nikmalar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar nutqini rivojlantirish bo'yicha tizimli ish olib borish jarayonida shakllantirilishi mumkin. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun dars imkoniyatlaridan foydalanish ona tili, o'qish savodxonligi darslarida va nutqni rivojlantirish bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlarda ko'proq hal qilinadi. Lekin "... tayyor bilimlar, tayyor nutqiy namunalar kor qilmaydigan dori-darmonlar kabi o'quvchi nutqini o'zgartirmaydi". M. Yo'ldoshevaning fikricha, dars loyihasi tuzilayotganda "zarur bo'lgan pedagogik ta'sirni ham aks ettirish lozim".<sup>2</sup> Pedagogik ta'sir tufayli har bir dars, har bir ish turi o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, ularni aqliy faoliyat ko'rsatishga undashi, nutq tuzilishini o'rganish orqali qanoat hosil qilishi kerak.

Bolalarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda "Story-telling" (hikoya qilish) metodikasini qo'llash yaxshi natija beradi. Bu metodika orqali o'quvchilarda sahnalashtirish, ijodkorlik, nutqiy savodxonlik kabi iqtidorlar shakllantiriladi. Story-tellingda rolli epizodlarni ijro etish orqali o'quvchilar bevosita ertak va hikoyalardagi dialogik va monologik nutqlarni ifodalay oladilar. Story-telling orqali bolalar ta'limning yangi bosqichini sodda va ravon tushunishadi. Chunki ular ertak yoki hikoyani audio matn orqali tinglab tushunishadi. Rollarni bo'lish jarayonida o'z-o'zidan matnni o'qishga tog'ri keladi. Bu jarayon orqali o'qituvchi dars davomida o'qib tushunish kompetensiyasi ustida ishlashga erishadi. Eng qiziqarli jarayon matndagi qahramonlarning o'quvchilar tomonidan jonlantirilishidir. Bu esa o'z o'rnida so'zlash, ya'ni nutqiy savodxonlikni rivojlantirish masalalariga ko'maklashadi.

Dars davomida o'quvchilar tinglashdi, o'qishdi, rollar orqali nutqlarini bemalol ifoda etishdi. Endi esa yozish malakalarini rivojlantirishgina qoldi. O'qituvchi o'quvchilarga hikoyada qaysi qahramonlar qatnashganligi va ularning fazilatlari haqida taassurot yozishlarini vazifa qilib berishi mumkin.

Shuningdek, ushbu metodni qo'llashda vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib boorish imkoniyati mavjud. O'quvchiga beriladigan vazifa va topshiriqlar mazmunining murakkablashtirib borilishi, tabiiyki, undan til jihatidan murakkabroq javobni talab qiladi. O'quvchilar bir bo'g'inli javoblar (taxmin, ta'rif)dan tildagi barcha so'z turkumlari hamda oddiy va murakkab jumalardan foydalangan holda batafsil, kengaytirilgan (tavsif, hikoya) javobga o'tishlari kerak.

O'qituvchi story-telling metodidan foydalanar ekan, materialga doimiy qiziqishni saqlab qolish uchun nutq topshiriqlaridan foydalanishi mumkin.

Nutq muammolarini hal qilishga barqaror qiziqishni saqlab qolish uchun ularni ta'sirchan, qiziqarli shaklda taqdim etish kerak.

Eng qiziqarli va samarali topshiriqlar – bu ijodiy topshiriqlardir. Ijodiy ish bolaga nima beradi? Birinchidan, o'zini namoyon qilish imkoniyati, ikkinchidan, turli manbalardan yangi

<sup>1</sup> R. A.Yo'ldoshev, L. R. Mirjalolova. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. –T.: 2009

<sup>2</sup> M. Yo'ldosheva. Ona tili darslarining pedagogik asoslari va yangi pedagogik texnologiyalar// O'zbek tili ta'limida pedagogik texnologiyalarning o'rni: "O'zbek tili" doimiy anjumani o'n birinchi yig'ini materiallari. – Toshkent: RTM, 2011

ma'lumotlarni olish istagi, uchinchidan, intellektual va kognitiv faoliyatga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiradi.

O'qituvchi darslarda nimadan foydalanishi mumkin?

Darslarda muammoli nutq vaziyatlarini yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil ishlariga urg'u berish kerak. Nutqiy kompetensiyasi yetarli bo'lmagan bolalarga savol bilan murojaat qilish, ularni nutqiy faollikka undaydigan motivatsion vaziyatlarni yaratishlari kerak (agar buni bajarish qiyinchilik tug'dirsa, o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish mumkin).

Ertaklarni o'zi o'ylab topish story-telling metodining yana bir bosqichidir. Barcha bolalar ertaklarni yaxshi ko'radilar va bundan birgalikda ertak yaratishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Ushbu bosqichda so'zlarni, iboralarni to'g'ri tanlash qobiliyati, muayyan vaziyatni sahnalashtirgan holda boshdan kechirish ko'nikmasi tarbiyalanadi. Ertak so'z boyligini kengaytirish orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantiradi, ularning tasavvurini, kuzatuvchanligini, idrokini rivojlantiradi, ona tiliga, o'zbek va chet el yozuvchilarning adabiy ijodiga qiziqishni kuchaytiradi.

Story-telling metodini qo'llashda o'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

- berilgan ertakni davom ettiring (“Bor ekan-da, yo‘q ekan...”);
- kimligimni taxmin qiling (sahnalashtirilgan rolli ko‘rinishlar)
- ertakning nomini toping (berilgan vaziyatlar, qahramonlar orqali)
- chalkashlik (ertak qahramonlari va vaziyatlarni chalkashtirish);
- ertak qahramonining ismi va uning qaysi ertakda yashashini ayting;
- ertakdan misol keltirish orqali qahramonga tavsif bering;
- ertak qahramonining tashqi ko‘rinishini tasvirlang;
- ertakning nihoyasini o‘ylab toping;
- ertak uchun krossvord tuzing.

Tadqiqot davomida biz quyidagi xulosalarga keldik.

Rolli story-telling vositalari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish amaliyotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashtirilishi va turli tipdagi darslarda didaktik kommunikatsiyani amalga oshirishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Story-tellingdan foydalanish o'quvchiga tengdoshlari va o'qituvchisi bilan muloqot qilish va o'zaro bilimlarni boyitishda faol ishtirok etish imkonini beradi, o'quvchining tasavvurini, erkin, ijodiy tafakkurini rivojlantirishni ta'minlaydi, uning savodli nutqini shakllantirishga yordam beradi.

Story-telling metodining axloqiy jihatini alohida ta'kidlash joiz. Aksariyat ertaklar oila, maktab jamoasi va, umuman, jamiyat uchun muhim bo'lgan qadriyatlarni o'rgatadi. To'g'ri tanlangan, o'ylangan hikoyaning o'zi yaxshi o'qituvchi va murabbiydir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.A.Yo'ldoshev, L.R. Mirjalolova. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. -T.: 2009
2. M. Yo'ldosheva. Ona tili darslarining pedagogik asoslari va yangi pedagogik texnologiyalar// O'zbek tili ta'limida pedagogik texnologiyalarning o'rnini: “O'zbek tili” doimiy anjumani o'n birinchi yig'ini materiallari. - Toshkent: RTM, 2011

3. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, G.Xolboyeva.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T.: 2021

4. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilariga-badiiy-asaarlarni-o-qitish-orqali-nutqlarini-o-stirish-texnologiyalari>

5. [Asher 1984: 35].

6. <https://www.creativosonline.org/uz/infografika-orqali-hayot-berish-uchun-hikoya-qilish-usuli.html/amp>